

**YURTIMIZDA MAVJUD BO‘LGAN “MAHALLA YETTILIGI”
FAOLIYATI TAHLILI**

Ro‘zimboyeva Kumushoy Shodlik qizi

Toshkent davlat yuridik universitetining Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi

Rozimboyevakumush34@gmail.com

***Annotatsiya:** mazkur maqolada yurtimizda mavjud bo‘lgan “mahalla yettiligi” faoliyati tahlili olib boriladi. Yakunda, muallif tomonidan sohani rivojlantirishga doir tegishli xulosalar beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** mahalla, jamiyat, siyosat, davlat, mahalla yettiligi.*

**АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ «СОСЕДСКОЙ СЕМЕРКИ» В
НАШЕЙ СТРАНЕ**

Рузимбоева Кумушой Шодлик кизи

Студент 3 курса факультета Частного права Ташкентского государственного
юридического университета

Rozimboyevakumush34@gmail.com

***Аннотация:** в статье анализируется деятельность «соседской семерки» в нашей стране. В заключение автор приводит соответствующие выводы относительно развития отрасли.*

***Ключевые слова:** район, общество, политика, государство, район семь.*

**ANALYSIS OF THE ACTIVITY OF THE “NEIGHBORHOOD
SEVEN” EXISTING IN OUR COUNTRY**

Ruzimboyeva Kumushoy Shodlik qizi

3rd year student of the Faculty of Private Law, Tashkent State University of Law

Rozimboyevakumush34@gmail.com

***Abstract:** this article analyzes the activity of the “neighborhood seven” existing in our country. In conclusion, the author gives relevant conclusions on the development of the field.*

Keywords: mahalla, society, politics, state, mahalla seven.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 21-dekabrdagi 293-sonli Prezident farmonida Farmonga ko‘ra, oldin mavjud bo‘lgan **mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektoridan** iborat “mahalla beshligi” yangi soliq inspekori va ijtimoiy xodimning qo‘shilishi natijasida “mahalla yettiligiga” aylantirildi. Quyida ushbu yettilikning vakolatlari bilan qisqacha tanishamiz:

- ☐ mahalla raisi – ehtiyojmand oilalarga uy-joyini yaxshilashga ko‘maklashish;
- ☐ hokim yordamchisi – ishsizlarga ish topishga ko‘maklashish;
- ☐ yoshlar yetakchisi – yoshlarni sport, musiqa va to‘garaklarga jalb etish;
- ☐ xotin-qizlar faoli – ayollarni tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilikka jalb qilish;
- ☐ profilaktika inspektori Mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta‘minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishda ko‘maklashish;
- ☐ soliq xodimi – mahalladagi imkoniyatlarni ishga solib, soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirishga hamda o‘zini o‘zi band qilganlarga kichik biznes toifasiga o‘tishga ko‘maklashish;
- ☐ ijtimoiy xodim – yolg‘iz keksa, nogiron va boshqa muhtojlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kabi aniq vazifalar bilan shug‘ullanish.

Ko‘rinib turibdiki, “mahalla yettiligi” aholining ijtimoiy,iqtisodiy, madaniy va boshqa shu kabi birlamchi huquqlarini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu uyushmadagi jismoniy shaxslarni daftarlarga kiritish, shuningdek, SJIF:5.219

daftarlar hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali ijtimoiy yordam ko'rsatish vakolatlarining mavjudligi uyushmaning aholi foydasi uchun naqadar ijtimoiylashgan tuzilma ekanligini anglatadi. Shuningdek, aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash, ularga ipoteka krediti ajratish "mahalla yettiligi" tavsiyasi asosida amalga oshirilishi yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 691-son qaroriga ko'ra yakka tartibdagi uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash maqsadlari uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan to'rt foiz yuqori stavkada 120 million so'mgacha miqdorda, 20 yilgacha muddatga ipoteka kreditlarini ajratish, ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badalning bir qismini qoplash uchun ajratiladigan kreditning 15 foizi miqdorida hamda foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun kredit muddatining birinchi besh yili davomida 12 foizdan oshgan qismiga subsidiya to'lab berish amaliyotining barchasi **"Mahalla yettiligi" tavsiyasi asosida amalga oshiriladi.**

O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyevning 2023- yil 25-oktabr kuni **"Xalqaro hamkorlik tashabbuslari haftaligi"** doirasida **"Bundan olti yil oldin mamlakatimizda kambag'allik darajasi 24 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 12–13 foizga tushganini alohida ta'kidlab o'tgani e'tiborga loyiqdir.** Haqiqatan kam, bugungi kunga kelib "Mahalla yettiligi"ning vakolatlari aholi foydasiga ancha kengaytirilgan. Endilikda fuqarolar o'zlarining ijtimoiy sohada vujudga kelgan muammolarining deyarli barchasini ortiqcha ovoragarchiliklarsiz o'zlari yashab turgan hududdagi "Mahalla yettiligiga"

murojaat qilishlari orqali yechim topishlari mumkin. Bundan tashqari bugungi mahalla tizimida mahalla budjeti tashkil qilingan bo'lib, ushbu majbلاغ'lar jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'i bo'yicha undirilgan mablag'larning (noturar joylar bo'yicha undiriladigan mol-mulk va yer solig'i bundan mustasno) 10 foizi, mahalla idoralari orqali ko'rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig'imning 10 foizi, mahalladagi hududi 2 000 kvadrat metrgacha bo'lgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini hokim yordamchisining onlayn-buyurtmanomasiga asosan to'g'ridan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag'lar, baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va boshqa mablag'lar aholi to'lagan soliqlar hisobiga amalga oshiriladi.

Ushbu "Mahalla budjeti" xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni har oy yakunlari bo'yicha "Ochiq budjet" axborot portalida keyingi oyning 5-sanasigacha e'lon qilingan portalda bilib olishimiz mumkin. Bu esa "Mahalla bujdeti" mablag'larining to'g'ri va shaffof tarzda yo'naltirilayotganligini kuzatishga imkon yaratib, budjetning nazoratini amalga oshiradi. Jamg'armaning joriy yilda foydalanilmagan mablag'lari esa jamg'arma ixtiyorida qoladi hamda kelgusi yilda foydalaniladi. Shu orqali mahalla instituti alohida o'z budjetiga ega tuzilma sifatida xalqimizga xizmat ko'rsatadi.

Bu kabi o'zgarishlar, albatta, xalq farovonligini yaxshilash, aholi turmush tarzini takomillashtirish, shuningdek, aholining davlat organi vakillari bilan ijtimoiy sohada yuzaga keladigan munosabatlarini qulay tarzda olib borish maqsadida yaratilgan bo'lib, barcha islohotlar xalqning yashash farovonligini barqarorlashtirishga qaratilgan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/docs/6705763>. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 21-dekabrdagi 293-sonli Prezident farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.